

O'ZBEKISTONDA OLDI-SOTDI SHARTNOMASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ASOSLARI

Beqaliev Rashidjon Jumanovich

Qo'qon Davlat universiteti "Milliy g'oya va Huquq" kafedrasи o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1539879>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oldi-sotdi shartnomasining huquqiy asoslari, uning tushunchasi, mohiyati, tuzilish tartibi va shakli keng yoritilgan.

Shuningdek, shartnomaviy munosabatlarda yuzaga keladigan asosiy huquqiy nizolar va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilingan. Amaliyotda uchraydigan nizolarni bartaraf etishda muzokara, sud tartibi, arbitraj va mediatsiya kabi huquqiy vositalarning o'rni yoritilgan.

Maqola amaliyot va nazariyaga asoslangan holda yozilgan bo'lib, huquqiy barqarorlikni ta'minlashda shartnoma madaniyatining ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Oldi-sotdi shartnomasi, huquqiy munosabatlar, nizolar, sud, mediatsiya, arbitraj, fuqarolik huquqi, shartnoma tuzish, tovar sifati, shartnoma majburiyatlari.

Kirish

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda shartnomaviy munosabatlar har qanday mulkiy muomala va iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, oldi-sotdi shartnomasi ko'pchilik fuqarolar, tadbirkorlar, korxona va tashkilotlar tomonidan kundalik hayotda eng ko'p qo'llaniladigan huquqiy vositalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligidagi bu turdag'i shartnoma munosabatlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, u fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi.

Oldi-sotdi shartnomasi orqali mulkning bir egasidan ikkinchisiga o'tishi, tovarlar, xizmatlar va boshqa iqtisodiy resurslar bozoriga erkin kirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, u bozor ishtirokchilari o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning aniq belgilanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatda erkin tadbirkorlik, xususiy mulkchilik, raqobat muhitining shakllanishi kabi omillar bu institutning huquqiy va iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan olib borilayotgan huquqiy islohotlar, xususan, fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va shartnomaviy intizomni kuchaytirish yo'lidagi sa'y-harakatlar ham aynan oldi-sotdi shartnomalarini huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ko'chmas mulk, avtomobil, sanoat texnikalari va elektron savdo yo'nalishlarida bu shartnomaning zamonaviy shakllarini yaratish va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yanada mukammallashtirish bugungi kun talabidir.

Oldi-sotdi shartnomasining tushunchasi va huquqiy mohiyati

Oldi-sotdi shartnomasi fuqarolik huquqining eng qadimiy va keng tarqalgan institutlaridan biri hisoblanadi. Bu shartnoma orqali mulk egasining huquqi boshqa bir shaxsga o'tadi, ya'ni sotuvchi tovari topshiradi, xaridor esa unga muayyan miqdorda pul to'laydi. Ushbu huquqiy munosabatlar tomonlar o'rtasidagi ishonch, huquqiy barqarorlik va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 385-moddasiga muvofiq, oldi-sotdi shartnomasi deganda, bir tomon (sotuvchi) boshqa tomonga (xaridorga) mol-mulkni topshirishni, xaridor esa bu mol-mulkni qabul qilib olishni va unga ma'lum miqdorda pul to'lashni zimmasiga oladigan bitim tushuniladi.

Bu ta’rifdan kelib chiqib, shartnomaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:
mulk huquqining o’tishi;
pul ekvivalentidagi kompensatsiya (ya’ni haq to‘lanadi);
tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlar.¹

Huquqiy mohiyatiga ko‘ra, oldi-sotdi shartnomasi ikki tomonlama, kompensatsion (pul evaziga bo‘ladi) va konsensual (ya’ni tomonlar kelishuviga erishgan paytdan boshlab yuridik kuchga ega) shartnomadir. Konsensual shartnoma sifatida u tovar hali topshirilmagan bo‘lsa ham, taraflar o‘zaro kelishuvga erishgach, shartnoma huquqiy kuchga ega bo‘ladi. Ayrim hollarda esa shartnoma real xarakterga ega bo‘lib, u faqat tovar topshirilgach yuzaga keladi (masalan, ko‘chmas mulk oldi-sotdisi).

Oldi-sotdi shartnomasining huquqiy mohiyati, avvalo, uning iqtisodiy aylanishdagi funksional roli bilan bog‘liq. Bu shartnoma yordamida:

mulkiy obyektlar aylanadi;
fuqarolar va yuridik shaxslar ehtiyojlari qondiriladi;
bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari amalga oshadi;
shartnomaviy intizom va huquqiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Shartnomaning amal qilish muddati, narxi, tovar sifati, topshirish usuli va javobgarlik choralar shartnoma mazmunida batafsil yoritilishi zarur. Aks holda, kelgusida nizolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, Fuqarolik kodeksida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda shartnomani yozma shaklda tuzish, notarial tasdiqlash yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblari belgilangan (masalan, ko‘chmas mulk oldi-sotdisi uchun).²

Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiy aloqalar kontekstida oldi-sotdi shartnomasining yangi shakllari (masalan, elektron savdo orqali tuziladigan shartnomalar) yuzaga kelmoqda. Bu esa ushbu institutni yanada keng qamrovli va moslashuvchan qilish zaruratinini tug‘diradi. Mazkur holat O‘zbekiston Respublikasining raqamlashtirish siyosati va fuqarolik qonunchiliginining zamonaviy talablarga moslashtirilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Shuningdek, shartnomaning huquqiy mohiyatini baholashda tomonlarning huquqiy maqomi (ya’ni ular jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi), savdo obyekti (ko‘chmas mulk, iste’mol tovarlari, intellektual mulk va boshqalar), to‘lov shartlari, shartnomaning bekor qilinishi va javobgarlik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.³

Shartnoma tuzish tartibi va shakli

Fuqarolik muomalasida oldi-sotdi shartnomasini to‘g‘ri va qonuniy tuzish, uning kelgusida haqiqiy bo‘lishi, tomonlar huquqlari va majburiyatlar aniq belgilanib, nizolarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bu borada aniq huquqiy asoslarni belgilab bergan. Oldi-sotdi shartnomasi ikki yoki undan ortiq tomonlarning o‘zaro roziligi asosida tuziladi. Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga ko‘ra, shartnoma erkinlik, tenglik, o‘z ixtiyoriligi va shartnomaviy majburiyatlarga rioya qilish asosida tuziladi. Shartnoma tuzish tartibi odatda quyidagi bosqichlardan iborat:

- Taklif (oferta) berish: Bir tomon (sotuvchi yoki xaridor) shartnoma tuzishni taklif qiladi.

Bu taklif aniq bo‘lishi, ya’ni muayyan tovar, uning miqdori, narxi va boshqa asosiy shartlarini o‘z ichiga olishi lozim.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi., lex.uz;

² Normurodova M.M. Fuqarolik huquqi: umumiy qism. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2021;

³ “O‘zbekiston Respublikasida elektron savdo faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonun – Qonunchilik ma’lumatlari milliy bazasi: www.lex.uz;

• Qabul qilish (aksept): Ikkinchi tomon bu taklifga rozi bo‘lganini bildiradi. Agar aksept taklifga to‘liq mos tushsa, shartnomalar tuzilgan hisoblanadi.

• Shartnomalar mazmunini kelishib olish: Tomonlar tovar sifati, miqdori, narxi, yetkazib berish muddati, to‘lov shakllari kabi jihatlarni aniqlab oladi.

• Shartnomani rasmiylashtirish: Belgilangan shaklda (og‘zaki yoki yozma) rasmiylashtiriladi.

• Majburiyatlarning bajarilishi: Shartnomaga binoan tovar topshiriladi, pul to‘lanadi va boshqa majburiyatlar bajariladi.⁴

Ayrim hollarda, masalan, ko‘chmas mulk, avtotransport vositasi, korxona kabi obyektlar bo‘yicha shartnomalar tuzilganida, ular notarial tasdiq va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi talab qilinadi. Shartnomalar og‘zaki yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 369-moddasida shartnomalarning shakli belgilangan. Quyidagi holatlarda yozma shakl majburiy hisoblanadi:

- Agar bir tomon yuridik shaxs bo‘lsa;
- Shartnomalar summasi belgilangan eng kam ish haqining 10 baravaridan oshsa;
- Ko‘chmas mulk oldi-sotdisi, ipoteka, yuridik shaxslarning mol-mulkini o‘tkazish hollari;
- Amaldagi qonun hujjatlarida yozma shakl aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa.

Yozma shaklga quyidagilar kiradi:

- Oddiy yozma shaklda (tomonlar imzosi bilan);
- Notarial tartibda tasdiqlangan;
- Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat shaklida (masalan, E-xat, E-imzo, E-kontrakt platformalari orqali).

Agar majburiy yozma shakl talab etilgan bo‘lsa, ammo og‘zaki shaklda tuzilgan bo‘lsa, bu holatda shartnomalar haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Agar shartnomaning muhim shartlari aniqlanmagan bo‘lsa, bunday bitim haqiqiy emas deb hisoblanishi mumkin.⁵

Oldi-sotdi shartnomasida huquqiy nizolar va ularning yechimlari

Fuqarolik muomalasida keng tarqalgan shartnomaviy munosabatlardan biri – bu oldi-sotdi shartnomasidir. Ushbu huquqiy munosabatda tomonlar – sotuvchi va xaridor o‘zaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar. Ammo amaliyotda ushbu majburiyatlarning buzilishi oqibatida nizolar yuzaga keladi. Bunday nizolarni huquqiy jihatdan samarali hal etish qonunchilik va sud amaliyotining asosiy vazifalaridan biridir.

Oldi-sotdi shartnomasida quyidagi holatlar ko‘p uchraydigan nizolarga sabab bo‘ladi:

Tovar sifati bo‘yicha nizolar – sotuvchi xaridorga nosoz, kafolat muddatiga javob bermaydigan yoki shartnomada ko‘rsatilgan sifatga ega bo‘lmagan tovarni bergen hollarda yuzaga keladi. Xaridor bu holatda tovarni almashtirish, narxni kamaytirish yoki shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Tovarni yetkazib berishda kechikish yoki rad etish - sotuvchi shartnomada belgilangan vaqtida tovarni topshirmasa yoki topshirishdan butunlay bosh tortsa, xaridor zararni qoplash, penya undirish va shartnomani bekor qilish talabini qo‘yishi mumkin.

To‘lov bilan bog‘liq nizolar- xaridor tovarni qabul qilib olgan bo‘lsa-da, to‘lovni to‘liq yoki muddatida amalga oshirmsa, sotuvchi foizlar, penya yoki shartnomani bir tomonlama bekor qilish talabini qo‘yishi mumkin.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi., www.lex.uz;

⁵ Tursunqulov A.T. Shartnomalar huquqi. – Toshkent: “Huquq dunyosi”, 2020;

Tovar miqdori yoki assortimenti bo'yicha muammolar-shartnomada ko'rsatilgan miqdordan kamroq yoki noto'g'ri assortimentdagi tovar topshirilgan hollarda ham nizo yuzaga keladi.

Ayrim hollarda, shartnomada noto'g'ri tuzilgan, rasmiy lashtirilmagan, majburiy notarial tasdiqdan o'tkazilmagan bo'lsa, tomonlar undan kelib chiqadigan majburiyatni tan olmasligi mumkin. Bu esa shartnomada haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.⁶

Huquqiy nizolarni hal etishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal etish-bu eng maqbul va arzon usul bo'lib, tomonlar bir-biriga da'vo qo'ymasdan, o'zaro tushunish asosida murosaga kelishadi. Bunda aralashuvsiz, shartnomani qayta ko'rib chiqish, to'lov yoki yetkazib berish muddatini uzaytirish orqali muammo bartaraf qilinadi.

Da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilish agar muzokaralar natija bermasa, tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga yoki iqtisodiy sudga da'vo bilan murojaat qilishi mumkin.

Sud quyidagi choralarga hukm chiqarishi mumkin:

- Tovarni qaytarish yoki almashtirish;
- Zararni qoplash (aniq miqdoriy ifoda bilan);
- Penya, foizlar va jarima undirish;
- Shartnomani haqiqiy emas deb topish;
- Shartnomani bekor qilish yoki uni majburan bajarish.

Arbitraj (muqobil) sudlarga murojaat qilish agar shartnomada arbitraj sudi ko'rsatilgan bo'lsa, tomonlar nizoni xalqaro yoki mahalliy arbitraj orqali hal etishlari mumkin. Masalan, Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) yoki TashIAC (Toshkent xalqaro tijorat arbitraj markazi).

Mediatsiya tartibida nizoni hal qilish - 2020-yildan boshlab "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun kuchga kirgan. Bu asosida taraflar ixtiyorilik asosida nizoni mediator (neyral uchinchil shaxs) vositasida hal etishlari mumkin. Mediatsiya sudga borishdan ko'ra tez va kam xarajatlari yechimdir.

Nizolarning oldini olish uchun quyidagi choralarni ko'rish tavsiya etiladi:

• Shartnomada tuzishda asosiy shartlarni (sifat, miqdor, narx, yetkazib berish muddati) aniq ko'rsatish;

- Tovarni topshirish va qabul qilishda dalolatnoma tuzish;
- To'lovlar bo'yicha kvitansiya, bank hujjatlari, elektron tasdiqlarni saqlash;
- Sud yoki huquqshunos xizmatlaridan foydalanish;
- Notarial tasdiq va davlat ro'yxatidan o'tkazish talablariga qat'iy rioya qilish.⁷

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oldi-sotdi shartnomasi O'zbekiston huquqiy tizimida eng ko'p uchraydigan va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlovchi huquqiy vositalardan biridir.

Shartnomaning aniq va qonuniy tuzilishi, tomonlar huquq va majburiyatlarining belgilanishi, hamda nizolarni hal etish mexanizmlarining mavjudligi – shartnomada munosabatlarining samarali ishlashiga asos bo'ladi.

⁶ Normurodova M.M., Fuqarolik huquqi: umumiy qism, Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2021-yil;

⁷ "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-yil, O'RQ-482-son;

Nizolarni sudgacha yetkazmaslik uchun shartnoma shartlarini aniq belgilash, huquqiy maslahat olish va hujjatlarni rasmiylashtirishga alohida e'tibor berish zarur. Shuningdek, mediatsiya va arbitraj kabi muqobil nizolarni hal etish usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi., lex.uz;
2. Normurodova M.M. Fuqarolik huquqi: umumiy qism. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2021;
3. "O'zbekiston Respublikasida elektron savdo faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonun – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz;
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi., www.lex.uz;
5. Tursunqulov A.T. Shartnomalar huquqi. – Toshkent: “Huquq dunyosi”, 2020;
6. Normurodova M.M., Fuqarolik huquqi: umumiy qism, Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2021-yil;
7. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-yil, O'RQ-482-son;